“Maxam-Chirchiq” AJning
2024-yil 24-iyuldagi
378-sonli buyrug’iga
5-ilova

# “Maxam-Chirchiq” AJda kontragentlarni tekshirishga oid YO‘RIQNOMA

Chirchiq-2024-yil

**“Maxam-Chirchiq” AJda kontragentlarni tekshirishga oid**
**YO‘RIQNOMA**

| 1-bob. Umumiy qoidalar | 1-боб. Умумий қоидалар |
|---|---|
| 1. Ushbu Yo‘riqnoma “Maxam-Chirchiq” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) tomonidan xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning (keyingi o‘rinlarda Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish) asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi. | 1. Ушбу Йўриқнома “Maxam-Chirchiq” АЖ (кейинги ўринларда – Жамият) томонидан харид қилиш тартиб-таомиллари, шу жумладан тўғридан-тўғри шартнома тузишда иштирокчиларни мажбурий текширишнинг (кейинги ўринларда Харид жараёнлари иштирокчиларини текшириш) асосий талаблари, тартиби ва усулларини белгилайди. |
| 2. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat: | 2. Харид жараёнлари иштирокчиларини текширишнинг мақсадлари қуйидагилардан иборат: |
| Jamiyat xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish; | Жамият ходимларининг манфаатлар тўқнашуви ва шахсий манфаатдорлиги билан боғлиқ бўлган коррупциявий хавф-хатарларни камайтириш; |
| insofsiz ijrosi bilan shartnoma tuzish xavf-xatarini kamaytirish; | инсофсиз ижроси билан шартнома тузиш хавф-хатарини камайтириш; |
| xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko‘rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash; | харид жараёни иштирокчисининг шартномада белгиланган товарларни етказиб бериш ёки хизмат кўрсатиш, ишларни бажариш имкониятини баҳолаш; |
| Kontragent bilan shartnoma tuzish to‘g‘risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish. | Контрагент билан шартнома тузиш тўғрисидаги қарорни тегишли даражада эҳтиёткорлик билан қабул қилиш. |
| 4. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish xaridning barcha ishtirokchilari, shu jumladan, ular o‘rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtai-nazaridan ham amalga oshiriladi. | 4. Харид жараёнлари иштирокчиларини текшириш хариднинг барча иштирокчилари, шу жумладан, улар ўртасидаги алоқа мавжудлиги эҳтимоли нуқтаи-назаридан ҳам амалга оширилади. |
| 5. Tekshiruv ushbu Yo‘riqnomaning 7 va 8-bandida ko‘rsatilganlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi. | 5. Текширув ушбу Йўриқноманинг 7 ва 8-бандида кўрсатилганлардан ташқари барча янги контрагентларга нисбатан, шунингдек амалдаги контрагентларга нисбатан камида бир йилда бир марта амалга оширилади. |
| 6. Ushbu Yo‘riqnomaning 7 va 8-bandida ko‘rsatilgan holatlardan tashqari, kontragent tekshiruvi natijalari bo‘yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolash va (yoki) to‘lovlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi. | 6. Ушбу Йўриқноманинг 7 ва 8-бандида кўрсатилган ҳолатлардан ташқари, контрагент текшируви натижалари бўйича хулосани олмасдан туриб шартномани имзолаш ва (ёки) тўловларни амалга оширишга йўл қўйилмайди. |
| 7. Elektron do‘kon va boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion shaklida o‘tkazilgan xaridlar bo‘yicha kontragentlar tekshirilmaydi. | 7. Электрон дўкон ва бошланғич нархни пасайтириш учун ўтказиладиган аукцион шаклида ўтказилган харидлар бўйича контрагентлар текширилмайди. |
| 8. Shuningdek, tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin: | 8. Шунингдек, текширув қуйидаги контрагентларга нисбатан амалга оширилмаслиги мумкин: |
| Kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, issiqlik ta’minoti, muhandislik-texnika ta’minoti, suv ta’minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni | Коммунал ва бошқа шу каби |

| | |
|---|---|
| tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish (ko‘mish) tarmoqlariga ulanish), shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo‘yicha yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;<br>O‘zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlar.<br>9. Ushbu Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanilgan:<br>**ijrochi** – Jamiyatda tuzilgan xarid komissiyasi a’zolari;<br>**kontragent** – Jamiyatning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;<br>**kontragent/kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar)** - kontragentning xususiy egasi bo‘lgan yoki ushbu Kontragent uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish yoki boshqacha tarzda uning xatti-harakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;<br>**korrupsiyaviy xatti-harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;<br>**manfaatlar to‘qnashuvi** – Jamiyat xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Jamiyat manfaatlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;<br>**maxfiy axborot** – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;<br>**tashabbuskor** – Jamiyat tarkibiy | хизматларни (шу жумладан, электр таъминоти, газ таъминоти, иссиқлик таъминоти, муҳандислик-техника таъминоти, сув таъминоти, сув чиқариш, оқава сувларни тозалаш, қаттиқ маиший чиқиндиларни утилизация қилиш (кўмиш) тармоқларига уланиш), шунингдек давлат томонидан тартибга солинадиган товарлар (ишларнинг, хизматларнинг) нархлар (тарифлар) бўйича етказиб берувчи ҳисобланган контрагентлар;<br>Ўзбекистон Республикасининг табиий монополиялари ҳисобланган контрагентлар.<br>9. Ушбу Йўриқномада қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилган:<br>**ижрочи** – Жамиятда тузилган харид комиссияси аъзолари;<br>**контрагент** – Жамиятнинг харид жараёнлари доирасида шартномавий муносабатларга киришишни режалаштираётган ҳар қандай юридик ёки жисмоний шахс;<br>**контрагент/контрагентнинг бенефициар эгаси (якуний бенефициар)** - контрагентнинг хусусий эгаси бўлган ёки ушбу Контрагент учун мажбурий бўлган кўрсатмалар бериш, қабул қилинаётган қарорларга таъсир кўрсатиш ёки бошқача тарзда унинг хатти-ҳаракатларини бевосита ёки билвосита назорат қилиш ҳуқуқи ёки имкониятига эга бўлган жисмоний шахс;<br>**коррупциявий хатти-ҳаракатлар** – ходим томонидан бевосита ёки билвосита шахсан ёки учинчи шахслар орқали пора берувчи манфаатлари йўлида ҳаракат ёки ҳаракатсизлик учун моддий манфаатдор бўлиши, шу жумладан пул, қимматбаҳо қоғоз, бошқа кўринишдаги мулк ва мулкий ҳуқуқлар, мулкий ҳарактердаги хизматлар олиш, талаб қилиш, ундириш, таклиф қилиш ёки бериш, пора бериш ва/ёки олиш ёки бунда воситачилик қилишда, расмиятчиликларни соддалаштириш учун тўловлар ундириш (пора олиш) ва бошқа ноқонуний мақсадларда ўз хизмат вазифаларидан ноқонуний фойдаланиш;<br>**манфаатлар тўқнашуви** – Жамият ходимининг шахсий манфаати (бевосита ёки билвосита) у томонидан хизмат вазифаларини тегишли тарзда бажаришига таъсир кўрсатаётган ёки кўрсатиши мумкин бўлган ва ходимнинг шахсий манфаати билан Жамият манфаатлари ўртасида зиддият юзага келаётган ёки келиши мумкин бўлган вазият; |

| | |
|---|---|
| bo‘linmasi;<br>**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – Jamiyat xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog‘langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag‘lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko‘rinishidagi shaxsiy foyda olish;<br>**yaqin qarindoshlar** – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari. | **махфий ахборот** – бу олиниши, ишланиши, узатилиши ёки фойдаланиши Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ёки ахборот эгасининг ички ҳужжатларига мувофиқ чекланадиган ҳар қандай шаклдаги ахборот;<br>**ташаббускор** – Жамият таркибий бўлинмаси;<br>**ходимнинг шахсий манфаатдорлиги** – Жамият ходими, унинг яқин қариндоши ёки ходим билан боғланган шахслар томонидан ходимнинг мансаб ёки хизмат вазифаларини тегишли тарзда бажаришига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган (шахсий, ижтимоий, молиявий, сиёсий ва бошқа тижорат ёки нотижорат манфаатлари) пул маблағлари, моддий ва номоддий қадриятлар, бошқа мулк, фойда, имтиёз ва афзалликлар кўринишидаги шахсий фойда олиш.<br>**яқин қариндошлар** – қариндош ёки қуда томондан қариндош бўлган шахслар, яъни ота-она, туғишган ва ўгай ака-ука ва опа-сингиллар, эр-хотин, фарзанд, шу жумладан фарзандликка олинганлар, бобо, буви, неваралар, шунингдек эр-хотиннинг ота-онаси, туғишган ва ўгай ака-ука ва опа-сингиллари. |
| **2-bob. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari** | **2-боб. Текширувни бошлаш тартиби, текширув учун талаб қилиб олинадиган ҳужжатлар ва ахборот манбалари** |
| 10. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilar bergan takliflarni ko‘rib chiqqandan keyin, biroq xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha g‘olib bo‘lgan taklifni akseptlash to‘g‘risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.<br>11. Xarid jarayoni doirasida qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlari tomonidan o‘rnatilgan muddatlarga rioya qilinishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish uchun ma’sul – tegishli Xarid komissiya raisi yoki shartnoma tashabbuskori hisoblanadi (agar xarid to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma bo‘yicha amalga oshirilayotgan bo‘lsa).<br>Bunda, ijrochi Xarid komissiya raisi tomonidan tayinlanadi.<br>12. Kontragentlar tekshiruvi ijrochi tomonidan hujjatlar tashabbuskoridan ushbu Yo‘riqnomaning 16-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar olingan sanadan 5 kundan ortiq bo‘lmagan muddatda amalga oshiriladi.<br>13. Tekshiruvni belgilangan muddatlarda | 10. Харид жараёни доирасида унинг иштирокчиларини текшириш харид комиссияси томонидан иштирокчилар берган таклифларни кўриб чиққандан кейин, бироқ харид қилиш тартиб-таомиллари якунлари бўйича ғолиб бўлган таклифни акцептлаш тўғрисида қарор қабул қилингунига қадар амалга оширилади.<br>11. Харид жараёни доирасида қонунчилик ва Жамиятнинг ички ҳужжатлари томонидан ўрнатилган муддатларга риоя қилиниши устидан текширувни амалга ошириш учун маъсул – тегишли Харид комиссия раиси ёки шартнома ташаббускори ҳисобланади (агар харид тўғридан-тўғри шартнома бўйича амалга оширилаётган бўлса).<br>Бунда, ижрочи Харид комиссия раиси томонидан тайинланади.<br>12. Контрагентлар текшируви ижрочи томонидан ҳужжатлар ташаббускоридан ушбу Йўриқноманинг 16-бандида кўрсатилган ҳужжатлар олинган санадан 5 кундан ортиқ бўлмаган муддатда амалга оширилади. |

| | |
|---|---|
| o‘tkazish imkoni bo‘lmagan taqdirda uning davomiyligi Xarid komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda 3 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga yozma shaklda uzaytirilishi mumkin.<br>14. Kontragentlarning tekshiruvini shoshilinch tartibda o‘tkazish zaruriyati mavjud bo‘lgan hollarda, tashabbuskor tomonidan shoshilinchlilik asoslangan, tekshiruvni o‘tkazishning zarur muddatlari ko‘rsatilgan xizmat xati bilan Xarid komissiyasiga murojaat qiladi. Shoshilinch tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror Xarid komissiyasi qarori asosida yo‘l qo‘yiladi.<br>15. Kontragentlarni tekshirish uchun hujjatlarni to‘plash va taqdim qilish uchun Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor (agar xarid to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma bo‘yicha amalga oshirilayotgan bo‘lsa) ma’sul bo‘ladi.<br>16. Kontragentni tekshirish uchun ijrochiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:<br>kontragentning o‘zi ushbu Yo‘riqnomaga 1-ilovaga muvofiq shaklda to‘ldirgan yakuniy benefitsiarlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;<br>kontragentdan olingan hujjatlar nusxasi (ushbu Yo‘riqnomaga 2-ilova);<br>kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi (mavjud bo‘lsa va bo‘lmasa) to‘g‘risida xat.<br>17. Ushbu Yo‘riqnomaning 16-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni olish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kontragentning ichki nazorat tuzilmasi va yakuniy befesiarlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma bundan mustasno. Kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar va yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etishni rad etgan taqdirda, tashabbuskor<br>bu haqda Kontragent ustidan taqdim etilgan hujjatlar asosida tekshiruvni amalga oshiradigan ijrochiga xabar beradi.<br>18. Kontragentni tekshirish uchun ma’lumotlar to‘plash ijrochi tomonidan kontragent, mulkdor va rahbarlari, faoliyati to‘g‘risida yaxlit va xolis fikrga ega bo‘lish, shuningdek, undan olingan ҳужжат ва ma’lumotlarning ishonchliligi, shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo‘yicha belgilar yo‘qligini (soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini) baholash uchun amalga oshiriladi.<br>Kontragentlarni tekshirish doirasida ijrochi | 13. Текширувни белгиланган муддатларда ўтказиш имкони бўлмаган тақдирда унинг давомийлиги Харид комиссияси раиси билан келишилган ҳолда 3 кундан ортиқ бўлмаган муддатга ёзма шаклда узайтирилиши мумкин.<br>14. Контрагентларнинг текширувини шошилинч тартибда ўтказиш зарурияти мавжуд бўлган ҳолларда, ташаббускор томонидан шошилинчлилик асосланган, текширувни ўтказишнинг зарур муддатлари кўрсатилган хизмат хати билан Харид комиссиясига мурожаат қилади. Шошилинч текширув ўтказиш тўғрисидаги қарор Харид комиссияси қарори асосида йўл қўйилади.<br>15. Контрагентларни текшириш учун ҳужжатларни тўплаш ва тақдим қилиш учун Харид комиссияси раиси ёки ташаббускор (агар харид тўғридан-тўғри шартнома бўйича амалга оширилаётган бўлса) маъсул бўлади.<br>16. Контрагентни текшириш учун ижрочига қуйидаги ҳужжатлар тақдим этилади:<br>контрагентнинг ўзи ушбу Йўриқномага 1-иловага мувофиқ шаклда тўлдирган якуний бенефициарлари тўғрисидаги маълумотнома;<br>контрагентдан олинган ҳужжатлар нусхаси (ушбу Йўриқномага 2-илова);<br>контрагентнинг коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тузилмаси (мавжуд бўлса ва бўлмаса) тўғрисида хат.<br>17. Ушбу Йўриқноманинг 16-бандида кўрсатилган ҳужжатларни олиш Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ мажбурий ҳисобланади, коррупцияга қарши курашиш бўйича контрагентнинг ички назорат тузилмаси ва якуний бефециарлар тўғрисидаги маълумотнома бундан мустасно. Контрагентнинг коррупцияга қарши курашиш бўйича ички ҳужжатлар ва якуний бенефициарлар тўғрисидаги маълумотномани тақдим этишни рад этган тақдирда, ташаббускор<br>бу ҳақда Контрагент устидан тақдим этилган ҳужжатлар асосида текширувни амалга оширадиган ижрочига хабар беради.<br>18. Контрагентни текшириш учун маълумотлар тўплаш ижрочи томонидан контрагент, мулкдор ва раҳбарлари, фаолияти тўғрисида яхлит ва холис фикрга эга бўлиш, шунингдек, ундан олинган ҳужжат ва маълумотларнинг ишончлилиги, |

| | |
|---|---|
| quyidagilarni tahlil qiladi:<br>kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar. Ushbu Yoʻriqnomaning 2-ilovasida koʻrsatilgan hujjatlarni kontragentdan olish imkoni boʻlmaganda yoki olingan hujjat yoki axborotlarning ishonchsizligiga oid (soxtalashtirilgani) belgilari mavjud boʻlgan hollarda ijrochi kontragent tekshiruvi natijalari toʻgʻrisidagi xulosada tegishli belgi qoʻyadi;<br>ochiq manbalardan olingan ma’lumotlar. Ijrochi 3-ilovada koʻrsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu roʻyxat tavsiyaviy boʻlib, zaruriyat tugʻilganda ijrochi boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;<br>tegishli tashkilotlarga rasmiy soʻrovnoma yuborish yoʻli bilan olingan hujjatlar;<br>Jamiyatning ichki resurslari, shu jumladan, kontragentlar tekshiruvlari reestri, xodimlarining manfaatlar toʻqnashuvi reestri va boshqalar.<br>19. Kontragentni tekshirish uchun ishlatilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.<br>20. Zaruriyat boʻlganda ijrochi tekshiruv davomida kontragentlarni joyiga chiqib, oʻrganishi mumkin. Bu kabi tekshiruvni oʻtkazish uchun ijrochi oʻz boʻlinmasi rahbari bilan kelishishi lozim.<br>Sayyor tekshiruv davomida Tashkilot rahbari (vakolatli vakili) bilan uchrashuv bayonnomasi tuzilib, unda kontragentdan olingan, dastlab ijrochi tomonidan asl nusxalari bilan taqqoslangan hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari sanab oʻtiladi. Olingan hujjatlar nusxalarining va (yoki) kontragentning vakolatli vakili tomonidan taqdim этилган изоҳлар roʻyxati tekshirilayotgan kontragentning vakolatli vakili va ijrochi tomonidan imzolangan alohida roʻyxat koʻrinishida rasmiylashtirilishi va uchrashuv bayonnomasiga ilova qilinishi kerak. | шу жумладан, уларнинг ишончсизлиги бўйича белгилар йўқлигини (сохталаштириш аломатлари мавжуд эмаслигини) баҳолаш учун амалга оширилади.<br>Контрагентларни текшириш доирасида ижрочи қуйидагиларни таҳлил қилади:<br>контрагент томонидан тақдим этилган ахборот ва ҳужжатлар. Ушбу Йўриқноманинг 2-иловасида кўрсатилган ҳужжатларни контрагентдан олиш имкони бўлмаганда ёки олинган ҳужжат ёки ахборотларнинг ишончсизлигига оид (сохталаштирилгани) белгилари мавжуд бўлган ҳолларда ижрочи контрагент текшируви натижалари тўғрисидаги хулосада тегишли белги қўяди;<br>очиқ манбалардан олинган маълумотлар. Ижрочи 3-иловада кўрсатилган ахборот манбаларидан фойдаланиши мумкин. Ушбу рўйхат тавсиявий бўлиб, зарурият туғилганда ижрочи бошқа манбалардан фойдаланиши мумкин;<br>тегишли ташкилотларга расмий сўровнома юбориш йўли билан олинган ҳужжатлар;<br>Жамиятнинг ички ресурслари, шу жумладан, контрагентлар текширувлари реестри, ходимларининг манфаатлар тўқнашуви реестри ва бошқалар.<br>19. Контрагентни текшириш учун ишлатилган манбалар қонунийлик ва холислик талабларига жавоб бериши керак.<br>20. Зарурият бўлганда ижрочи текширув давомида контрагентларни жойига чиқиб, ўрганиши мумкин. Бу каби текширувни ўтказиш учун ижрочи ўз бўлинмаси раҳбари билан келишиши лозим.<br>Сайёр текширув давомида Ташкилот раҳбари (ваколатли вакили) билан учрашув баённомаси тузилиб, унда контрагентдан олинган, дастлаб ижрочи томонидан асл нусхалари билан taққосланган ҳужжатларнинг тасдиқланган нусхалари санаб ўтилади. Олинган ҳужжатлар нусхаларининг ва (ёки) контрагентнинг ваколатли вакили томонидан тақдим этилган изоҳлар рўйхати текширилаётган контрагентнинг ваколатли вакили ва ижрочи томонидан имзоланган алоҳида рўйхат кўринишида расмийлаштирилиши ва учрашув баённомасига илова қилиниши керак. |
| **3-bob. Kontragentlarni tekshirish** | **3-боб. Контрагентларни текшириш** |

| metodologiyasi | методологияси |
|---|---|
| 21. Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:<br>1) kontragentning huquq layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlar tarixini tekshirish, shu jumladan:<br>a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, xodimlar va boshqa resurslarning mavjudligi;<br>b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;<br>v) soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;<br>g) kontragentlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;<br>d) insofsiz ijrochilarning yagona reestrida qayd etilmaganligi;<br>2) kontragentning ish sohasidagi obro‘-e’tibori;<br>3) manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini tekshirish.<br>Ko‘rsatilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazish majburiy hisoblanadi. Tekshiruv yo‘nalishlari ro‘yxati har bir alohida holatda ijrochining xarid komissiyasi qarori bilan kelishilgan talabi bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo‘nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo‘lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. | 21. Контрагентларни текшириш қуйидаги асосий йўналишлар бўйича амалга оширилади:<br>1) контрагентнинг ҳуқуқ лаёқати, молиявий барқарорлиги, ишончлилиги ва у билан бўлган ўзаро муносабатлар тарихини текшириш, шу жумладан:<br>а) шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, ходимлар ва бошқа ресурсларнинг мавжудлиги;<br>б) шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуққа эгалик;<br>в) солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги;<br>г) контрагентларга нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги;<br>д) инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги;<br>2) контрагентнинг иш соҳасидаги обрў-эътибори;<br>3) манфаатлар тўқнашуви мавжуд эмаслигини текшириш.<br>Кўрсатилган йўналишлар бўйича текширув ўтказиш мажбурий ҳисобланади. Текширув йўналишлари рўйхати ҳар бир алоҳида ҳолатда ижрочининг харид комиссияси қарори билан келишилган талаби билан кенгайтирилиши мумкин. Бунда, текшириш йўналиши давлат харидларини тартибга солувчи қонунчиликка зид бўлиши ва (ёки) рақобат тамойилларини чеклашга олиб келишига йўл қўйилмаслиги лозим. |
| 22. Ijrochi foydalanish mumkin bo‘lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 25-27-bandlarda ko‘rsatilgan har bir yo‘nalishga nisbatan quyidagi kontragentning tekshiruv natijalari to‘g‘risida xulosada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning bor-yo‘qligini belgilaydi. | 22. Ижрочи фойдаланиш мумкин бўлган ахборот манбаларининг таҳлилини амалга оширади ва 25-27-бандларда кўрсатилган ҳар бир йўналишга нисбатан қуйидаги контрагентнинг текширув натижалари тўғрисида хулосада кўрсатилган маълумотларнинг бор-йўқлигини белгилайди. |
| 23. Ushbu Yo‘riqnoma amalga kiritilgunga qadar shartnomaviy munosabatlarda bo‘lgan Jamiyatning amaldagi kontragentni tekshirishda ijrochi bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu kontragent bilan o‘zaro harakat tajribasi va uning Jamiyat bilan avval tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdagi halolligini tekshiradi.<br>Yangi kontragentni tekshirishda ijrochi kontragent tomonidan shu kabi shartnomalarning bajarilganligi to‘g‘risidagi axborot va boshqa buyurtmachilar (mijozlar) bergan tavsiyanomalarni tahlil qiladi hamda imkon darajasida ushbu kontragentning boshqa mijozlari oldidagi | 23. Ушбу Йўриқнома амалга киритилгунга қадар шартномавий муносабатларда бўлган Жамиятнинг амалдаги контрагентни текширишда ижрочи бундан аввалги шартномавий муносабатларнинг давомийлиги, ушбу контрагент билан ўзаро ҳаракат тажрибаси ва унинг Жамият билан аввал тузилган шартномалар бўйича мажбуриятларни бажаришдаги ҳалоллигини |

shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdagi halolligini tekshiradi.

24. Kontragentning huquq layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo‘lgan munosabatlar tarixini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma’lumotlarni aniqlaydi:

tadbirkorlik sub’ektlarining Yagona reestrida kontragentning mavjudligi;

kontragentning yuridik va amaldagi manzili;

kontragent rahbari va ta’sischilarining F.I.Sh.;

kontragent asosiy faoliyat turining xarid predmetiga muvofiqligi;

kontragent faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o‘ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

kontragentda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda litsenziyalanishi kerak bo‘lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur litsenziyalarning (ruxsatnomalar) mavjudligi;

kontragentda ochiq axborot, taqdim etilgan hujjatlar va buxgalteriya hisobdorligiga muvofiq, asosiy mablag‘lar, xususiy kapital, xodimlar va boshqa texnik, moliyaviy, moddiy va Jamiyat oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa resurslarning mavjudligi;

kontragent nomidan Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan shaxsda tegishli vakolatning mavjudligi;

kontragent maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritilmaganligi;

kontragentning so‘nggi ikki yil ichida Jamiyat oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarmaganligi yoki ularning lozim darajada bajarmaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emasligi;

kontragentda soliqlar va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud emasligi.

25. Kontragentning ish sohasidagi obro‘-e’tiborini tekshirish doirasida ijrochi quyidagi ma’lumotlarni aniqlaydi:

ochiq axborot manbalarida kontragent, uning mulkiy egalari, shu jumladan benefitsiar mulkiy egalari yoki rahbarlarning firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar yoki boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to‘g‘risidagi axborot mavjud

текширади.

Янги контрагентни текширишда ижрочи контрагент томонидан шу каби шартномаларнинг бажарилганлиги тўғрисидаги ахборот ва бошқа буюртмачилар (мижозлар) берган тавсияномаларни таҳлил қилади ҳамда имкон даражасида ушбу контрагентнинг бошқа мижозлари олдидаги шартномавий мажбуриятларини бажаришдаги ҳалоллигини текширади.

24. Контрагентнинг ҳуқуқ лаёқатини, молиявий барқарорлиги, ишончлилиги ва у билан бўлган муносабатлар тарихини текшириш доирасида ижрочи қуйидаги маълумотларни аниқлайди:

тадбиркорлик субъектларининг Ягона реестрида контрагентнинг мавжудлиги;

контрагентнинг юридик ва амалдаги манзили;

контрагент раҳбари ва таъсисчиларининг Ф.И.Ш.;

контрагент асосий фаолият турининг харид предметига мувофиқлиги;

контрагент фаолиятини тугатиш, қайта ташкил этиш, ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги;

контрагентда Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ равишда лицензияланиши керак бўлган фаолият турларини амалга ошириш учун зарур лицензияларнинг (рухсатномалар) мавжудлиги;

контрагентда очиқ ахборот, тақдим этилган ҳужжатлар ва бухгалтерия ҳисобдорлигига мувофиқ, асосий маблағлар, хусусий капитал, ходимлар ва бошқа техник, молиявий, моддий ва Жамият олдидаги мажбуриятларни бажариш учун зарур бўлган бошқа ресурсларнинг мавжудлиги;

контрагент номидан Жамият билан шартномавий муносабатларга киришаётган шахсда тегишли ваколатнинг мавжудлиги;

контрагент махсус ахборот порталида инсофсиз ижрочиларнинг ягона реестрига киритилмаганлиги;

контрагентнинг сўнгги икки йил ичида Жамият олдидаги шартномавий мажбуриятларнинг ўз вақтида бажармаганлиги ёки уларнинг лозим даражада бажармаганлиги тўғрисида маълумотлар мавжуд эмаслиги;

контрагентда солиқлар ва йиғимларни

| | |
|---|---|
